


SHAHAR EKOLOGIYASIDA YASHIL TEXNOLOGIYALAR



Saidova Xosiyatxon Ibroxim qizi,

Farg'onə davlat universiteti

Geografiya mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaharlar ekologiyasi haqida fikrlar ilgari surilgan. Shahar ekologiyasida yashil texnologiyalarning ahamiyati, uning ta'siri xususida ayrim mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Shahar ekologiyasi, urbanizatsiya, ekologik omillar, ekotizm, yashil texnologiya, iqlim o'zgarishlari, qayta ishslash, qishloq xo'jaligi.

Dastlabki shaharlarning paydo bo'lishi taxminan 3000 yillar avvalga to'g'ri kelib bu shaharlar, asosan, Nil, Tugr, Yefrat kabi daryolar qirg'og'ida yuzaga kelgan. Albatta, shaharlar o'z- o'zidan paydo bo'lib qolmagan. Shaharlarning paydo bo'lishiga o'ziga xos sabablar mavjud bo'lgan. Shulardan biri aholini turli bosqinchilardan himoya qilish bo'lsa, boshqasi savdo- sotiq hamda hunarmandchilik rivoji bilan bog'liq deb qaraladi.

Yer yuzi aholisining deyarli yarmi shaharlarda istiqomat qiladi. Shaharlarning o'sib borishiga- qishloqlarga shahar maqomining berilishi, shaharlar hududining qo'shni qishloq joylari hisobiga ortib borishi, qishloqlardan shaharlarga aholining ko'chib kelishi (migratsiya) hamda shaharlarning tabiiy ko'payishi sabab bo'ladi.¹

Shahar ekologiyasi shahar muhitining strukturasi, funksiyasi va inson faoliyatining ekologiyaga ta'sirini aniqlaydi. U shaharlar va ularning atrof- muhitdagi

¹ Shahar ekologiyasi. B.f.n. Yodgorova D. Sh, b.f.n. Egamberdiyeva L. Sh, b.f.n. Azimova D. O. Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2013.

o‘zaro aloqalarini tahlil qiladi. Shahar ekologiyasida quidagi jihatlar muhim hisoblanadi.




Yashil texnologiya tabiiy resurslarni samarali ishlatish va ekologik zararni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyalarni anglatadi. U quyidagi asosiy sohalarda qo’llaniladi:

1. Qayta tiklanuvchi energiya - quyosh, shamol, geotermal va biologik yoqilg‘ilarni ishlatish.
2. Energiya samaradorligi - binolarda energiyani tejash uchun yangi materiallar va tizimlar.
3. Suvni tejash - suvni toplash, filtrlaydigan va purkash texnologiyalari.
4. Ishlab chiqarishda barqarorlik - chiqindilarni kamaytirish va qayta ishslash jarayonlari.
5. Transportda yashil echimlar - elektr transport quvvatlari va qayta tiklanuvchi yoqilg‘ilar.

Yashil texnologiya ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi va barqaror iqtisodiy o’sish uchun zamin tayyorlaydi.

Shaharlarda yashil texnologiyalarni qo’llashning ahamiyati bir qancha bo‘lib, u o‘zini quyidagilarda namoyon qiladi:



Aholining shaharlarda kompakt holda yashashi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qilishi bilan bir qatorda atrof tabiiy muhitning ekologik xavfsizlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shaharlarda tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, suv va er osti boyliklaridan foydalanish o'ta yuqori darajada bo'lgani uchun ham ularda tabiiy ob'ektlarning holati to'lig'icha antropogen o'zgargan ko'rinishda bo'ladi. Ulardagi ekologik tizimlarning harakatlanish jarayoni kishilarning xo'jalik faoliyati bilan uzviy bog'langandir. Ekologik tizimlarda nafaqat biologik yoki ximik, balki fizik o'zgarishlar (elektromagnit maydon tebranishlari) ham o'ta kuchaygan ravishda namoyon bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Shahar ekologiyasi. B.f.n. Yodgorova D. Sh, b.f.n. Egamberdiyeva L. Sh, b.f.n. Azimova D. O. Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2013.
2. Abirqulov Q.N., Xojimatov A.N., Rajabov N. Ekologiya - T.: 2004.
Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Xamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya, - T.: 2004.

3. Abirqulov Q. N., Xojimatov A.N., Rajabov N., Atrof-muhit muhofazasi. - Т.: 2004.
4. Rafiqov A.A., Abirqulov Q.N., Xojimatov A.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. O‘quv qollanma. -Т., 2004
5. Nigmatov A.N., Shivaldova N.S, Sultanov R.N. Ekologiya va barqaror rivojlanish. O‘quv qollanma. -Т., 2004 Kasimov N.S. и др. Экология города. – М.: Научный мир, 2004.